

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Bozorova Sevara Namoz qizi

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq

ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi

+998 33 376 14 24

Annotatsiya

Korrupsiya davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan jiddiy muammolardan biridir. Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashda dolzarb bo'lgan muammolar, ular sabab bo'layotgan salbiy oqibatlar va samarali yechimlar muhokama qilinadi. Ushbu tahlillar orqali jamiyatda halollik madaniyatini rivojlantirish va shaffof boshqaruvni ta'minlashning dolzarbligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, davlat boshqaruvi, shaffoflik, fuqarolik jamiyati, nepotizm

Kirish

Korrupsiya – bu davlat boshqaruvi va jamiyat hayotining barcha sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi global muammo. Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat davlat siyosati, balki fuqarolik jamiyatining ham asosiy vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada korrupsiyaning mohiyati, uning oqibatlari va unga qarshi kurashish yo'nalishlarining dolzarb masalalari tahlil qilinadi.

Korrupsiya so'zining lug'aviy ma'nosi lotincha *corrumpō* – aynish, poraga sotilish ma'nosini bildirsa, istilohda esa mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat amaliyot tushuniladi.[1] Arablar korrupsiyani (الفساد) *fasod* deb atashsa, bizda korrupsiyaga muqobil o'laroq poraxo'rlik so'zini qo'llashadi.

Korrupsiyaning huquqiy ta'rifi — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir [2]

Korrupsiya turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin va uni tasniflashda o'zaro bog'liq mezonlardan foydalaniladi. Korrupsiya tashkiliy jihat, harakat yo'nalishi, amalga oshiriladigan sohalar, geografik ko'lami va tizimlar bo'yicha ham bir qancha turlarga bo'linadi. Shuningdek, yashirin ko'rinishdagi korrupsiya turlari ham bo'lib, iste'molda tanish-bilishchilik, urug'-aymoqchilik, ayirmachilik kabi

nomlar bilan tilga olsak, ilmiy istilohda esa, nepotizm, klientilizm va lobbizm kabi nomlar bilan ataladi.

Korrupsiya jamiyat va davlatning barcha sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi, ijtimoiy adolatni buzadi va davlat boshqaruvi tizimini zaiflashtiradi. Korrupsiya jamiyatda qanday ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini keltirib chiqarishini quyida tahlil qilamiz.

Korrupsiyaning ijtimoiy oqibatlari

1. Ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlikning kuchayishi

Korrupsiya tufayli xizmatlar va imkoniyatlar teng taqsimlanmaydi. Natijada, boylar va mansabdor shaxslar imtiyozlar oladi, kambag'allar esa asosiy xizmatlardan chetlashtiriladi. Masalan, sog'liqni saqlash yoki ta'lim xizmatlarida pora tufayli faqat boylar yuqori sifatli xizmatlardan foydalanadi.

2. Fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini yo'qotishi

Korrupsiya holatlari oshkor bo'lganda, aholining davlat idoralari va mansabdor shaxslarga ishonchi kamayadi. Bu esa fuqarolik faolligining pasayishiga olib keladi. Fuqarolar orasida huquqiy nigilizm ortishi kabi salbiy illatlarning urchishiga zamin yaratadi.

3. Jamiyatda zo'ravonlik va norozilikning oshishi

Adolat va teng imkoniyatlarning yo'qligi natijasida jamiyatda ijtimoiy norozilik va tartibsizliklar kuchayadi. Bu esa siyosiy beqarorlikka olib kelishi mumkin.

4. Ta'lim va madaniyatning tanazzuli

Korrupsiya ta'lim tizimiga kirib kelganida, malakasiz kadrlar shakllanadi. Bu esa ilm-fanning rivojlanishini susaytiradi va madaniy tanazzulga olib keladi. Malakasiz kadrlar jamiyatning og'irini yengil qilish o'rniga aks ta'sir etib, jamiyatning yanada tanazzul tomon ketishiga sabab bo'ladi.

Iqtisodiy oqibatlari

1. Iqtisodiy samaradorlikning pasayishi

Resurslarning adolatsiz taqsimlanishi va noqonuniy yo'llar bilan o'zlashtirilishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytiradi. Masalan, davlat mablag'lari samarali loyihalarga emas, balki korrupsiyaga aloqador manfaatlarga sarflanadi.

2. Investitsion muhitning yomonlashuvi

Har qanday rivojlanayotgan davlat uchun uning rivojlanishida va taraqqiy etishida chetdan kirib keladigan investitsiyaning o'rnini beqiyos. Ammo korrupsiyaga boy mamlakatlarda investorlar o'z mablag'larini xavfsiz deb bilmaydi va boshqa davlatlarni afzal ko'radi. Masalan, xalqaro investorlar korrupsiyadan qo'rqib, o'z kapitalini rivojlanayotgan davlatlardan olib chiqib ketadi.

3. Davlat byudjetiga zarar

Davlat byudjetidan noqonuniy o'zlashtirishlar va soliqdan qochish holatlari davlat moliyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlari cheklanadi.

4. Raqobat muhitining buzilishi

Korrupsiyaga aloqador shaxslar noqonuniy afzalliklarga ega bo'lib, halol raqobatni cheklaydi. Bu esa iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

5. Milliy infratuzilmaning rivojlanishini sekinlashtirish

Tender va davlat xaridlari sohasidagi korrupsiya infratuzilmaviy loyihalarni sustlashtiradi yoki sifatsiz bajarilishiga olib keladi.

Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning salbiy ta'sirini kamaytirish uchun samarali strategiyalarni joriy etish zarur. Shaffof boshqaruv tizimi, fuqarolik nazorati va xalqaro tajribalardan foydalanish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega.

Korrupsiya lokal emas, aksincha global muammo hisoblanadi. Azal-azaldan korrupsiyaning naqadar buzuvchi illat va jinoyat ekani ta'kidlab kelingan. Qadimgi davlatlarni ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'ni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qur'oni Karimda "Bir-birlaringizning mollaringizni nohaq yemanglar. Bilaturib odamlarning mollaridan bir qismini yeyish maqsadida gunoh yo'l bilan uni hokimlarga uzatmanglar" [3] deyilgan.

Bugunga kelib, korrupsiya global iqlim o'zgarishi, qashshoqlik, ochlik, ishsizlik va oziq-ovqat, yoqilg'i narxlarining ko'tarilishi kabi global muammolarni ortda qoldirib, hammaning tilidagi dardiga aylangan. Bi-bi-si Jahon Xizmati buyurtmasi asosida o'tkazilgan so'rov natijalaridan ayon bo'lishicha, korrupsiya dunyoda eng ko'p muhokama etiluvchi global muammoga aylangan. [4]

Korrupsiya global muammogina bo'lib qolmay, global muammolar ichida eng xavf soluvchi muammo ekani ayon bo'lmoqda. Qaysiki jamiyat, o'zining buguni, kelajagi haqida qayg'uradigan bo'lsa, albatta, bu illatga qarshi kurashishi lozim bo'ladi.

Korrupsiyaga qarshi samarali kurash strategiyalari

Buning uchun davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish korrupsiyaga qarshi qonunchilikni kuchaytirish, xalqaro tajribalarni o'rganish va samarali joriy qilish kerak bo'ladi. Hukumatning xalq oldida hisobdorligini oshirish, shaffof va sog'lom raqobat muhitida o'tadigan saylovlar ham korrupsiyaga keskin zarba berishi aniq. Oxirgi yillarda mamlakatimizda bu borada ko'pgina islohotlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. [2]

Ammo bu muammo davlat tizimidagi islohotlar bilangina yo'q bo'lib qolmaydi. Jamiyat orasida korrupsiyani o'zi uchun legitimlashtirish holatlari ko'p kuzatiladi. Oddiygina tanish-bilishchilikni hamma ham aslida korrupsiya va zararli illat ekanini anglab yetmagan. Agar jamiyat orasida korrupsiyaga nafrat va undan uzoq bo'lishini ta'minlamoqchi bo'lsak, jamiyat a'zolarining, ya'ni vatandoshlarimizning o'z qadriyatlaridan kelib chiqib korrupsiyaning zararlarini tushuntirish lozim bo'ladi. Shu bilan birga bu boradagi Qonunlarni eslatib o'tish, targ'ibot-tashviqot ishlarini tizimli davom ettirish kerak bo'ladi. Korrupsiya muammo sifatida hech qachon dolzarbligini yo'qotmaydi. Ammo tarixda va bugunimizda ham shunday jamiyatlar, davlat shakllanib, taraqqiy etishgan-ki, ularda korrupsiya butunlay yo'q bo'lmasa-da, davlat va jamiyatga rahna soladigan darajada emas. Birgina Singapur "iqtisodiy mo'jizasi" bunga misol. [5]

Xulosa

Korrupsiyaga qarshi kurash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib, u nafaqat davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va ishonchni tiklash uchun ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda korrupsiyaning turli shakllari, uning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy oqibatlari o'rganildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

Huquqiy asoslarni mustahkamlash: Korrupsiyaga oid qonunchilikni doimiy ravishda takomillashtirish va uni hayotga samarali joriy etish orqali tizimga ishonchni oshirish.

Davlat boshqaruvining shaffofligini ta'minlash: Raqamlashtirish va ochiq ma'lumotlar platformalarini rivojlantirish orqali korrupsiyaning oldini olish.

Yoshlar orasida korrupsiyaning zararli oqibatlarini tushuntiruvchi dasturlarni kengaytirish va korrupsiyaga nisbatan nol bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish lozim.

Korrupsiyaga qarshi samarali kurash mexanizmlarini joriy qilish uchun nafaqat davlat organlarining, balki jamiyatning barcha qatlamlarining birgalikdagi harakatlari zarur. Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, shaffof va hisobdor boshqaruv tizimini yaratish korrupsiyaning ildizlarini yo'q qilish uchun asosiy shartlardan biridir. Kelajakda korrupsiyaga qarshi kurash faqat jazolashga emas, balki uning oldini olishga qaratilgan tizimli choralar orqali davom ettirilishi lozim. Xalqaro tajriba ko'rsatganidek, korrupsiyani kamaytirishda iqtisodiy rivojlanish va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash muhim o'rin tutadi. Shu boisdan, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi uzoq muddatli va kompleks yondashuvga asoslangan bo'lishi kerak. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun davlat va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari talab etiladi. Bu yo'nalishda huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy choralarning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Korrupsiya>

2. <https://lex.uz/docs/-3088008>
3. <https://kun.uz/news/2022/12/09/dinimizda-pora-beruvchi-ham-oluvchi-va-vositachi-ham-lanatlangan-muftiy-korrupsionerlarni-boshqalarning-mulkini-yeyish-gunohidan-ogohlantirdi> Transparency International. Global Corruption Index.
4. O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni. Lex.uz
5. <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/singapur-iqtisodiy-mujizasi-ning-muallifi-li-kuan-yuning-tajribasi-va-ugitlari>
6. Baymatov, A. K. (2022). TINCHLIK MADANIYATI BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 459-465.
7. HAKIMOVA, M. R. MAMLAKAT VA FRONT EHTIYOJLARIGA QARATILGAN QISHLOQ XO 'JALIGI SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING FRONTORTI JASORATLARI.
8. Rashidovna, XM (2022). Yangi O'zbekiston dunyo nigohida: faol tashqi siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik borasidagi yutuqlar. *Integratsiyalashgan ta'lim bo'yicha xalqaro jurnal* , 5 (6), 423-427.